

MAG‘JAN JUMABAEVNING “PEDAGOGIKA” KITABI – TURKISTON O‘LKASIDAGI
BIRINCHI ILMIY-PEDAGOGIK ADABIYOT

Anargul Sothbarovna Kaldibekova
Nizomiy nomidagi TDPU professori
pedagogika fanlari nomzodi

Annotatsiya: maqolada Mag‘jan Jumabaevning “pedagogika” kitobi – Turkiston o‘lkasidagi birinchi ilmiy-pedagogik adabiyot haqida gap borgan.

Kalit so‘zlar: Pedagogika, ta’lim, tarbiya, kitobxonlik, mutafakkirlar, texnologiya, usul, komprovistika.

**THE BOOK "PEDAGOGY" BY MAGJHAN JUMABAEV IS THE FIRST SCIENTIFIC
AND PEDAGOGICAL LITERATURE IN THE COUNTRY OF TURKEY**

Anargul Sothbarovna Kaldibekova
TDPU professor named after Nizomi
Candidate of Pedagogical Sciences

Abstract: the article talks about Magzhan Jumabaev's book "Pedagogy" - the first scientific and pedagogical literature in Turkestan.

Key words: Pedagogy, education, upbringing, reading, thinkers, technology, method, compristics.

XX asr boshida Turkiston o‘lkasining madaniy-ma’rifiy markaziga aylangan Toshkent shahri turkiy xalq ziyolilarini birlashtirdi. Bu yerda millat ziyolilari o‘z ona tilida maktablar ochish, o‘quv adabiyotlarini yozish, badiiy asarlarini kitob holda nashr etishda faol qatnashdilar. 1920 yilda Toshkentda Qozoq xalq maorif instituti ochildi. Qozoq maktablari uchun o‘qituvchilar tayyorlash maqsadida ochilgan mazkur institutga Turkiston o‘lkasining shaharlaridan Muxametjan Tinishbaev, Xalel Dustmuxamedov, Sanjar Asfendiyarov, Mag‘jan Jumabaev, Jusipbek Aymautov kabi pedagog-olimlar taklif etilgan.

1922 yilda Omsk va Petropavlovskda o‘qituvchilar tayyorlash kurslarini ochgan, qozoq o‘qituvchilarini tayyorlashga mas’ul bo‘lgan Mag‘jan Jumabaev Turkiston o‘lkasi Xalq Komissarlar Kengashi raisi Turar Risqulov taklifiga binoan Toshkentdagi Qozoq xalq maorif institutida dars berdi. Institutda qozoq tili va adabiyoti fanidan dars berar ekan, Toshkentdagi “Sana”, “Cho‘lpan” jurnallari, “Aqjol” gazetalarida faol ishlaydi, ko‘plab she’r va “Botir Bayan” dostonini, bir qator adabiy tadqiqot ishlarini nashr ettiradi. Olim 1922 yilda Orenburgda nashr etilgan “Pedagogika” nomli ilmiy asarini biroz tuzatishlar bilan 1923 yilda Toshkentda qayta nashr ettirdi. Shunday qilib, qozoq

tilida chop etilgan ilk “Pedagogika” kitobi pedagog kadrlar tayyorlaydigan ta’lim muassasalari uchun zarur ilmiy-pedagogik adabiyotga aylandi.

Bu kitobni yozishdan maqsadini Mag‘jan Jumabaev shunday izohlaydi: “...***Bolaga haqiqiy ta’lim-tarbiya berish uchun pedagogning o‘z tajribasi ham milliy tarbiya bilan yaqindan tanish bo‘lishi yetarli emas. ...ta’lim sohasida yetishib chiqqanlarning tajribalari bilan, turli millatdan turli davrlarda yashagan ma’rifatparvar olimlarning fikr-mulohaza-lari bilan, bir so‘z bilan aytganda, tarbiya xaqida to‘g‘ri yo‘lga kirishish uchun tarbiya fani bilani ya’ni pedagogika bilan yaxshi tanish bo‘lishi kerak***”.

Mag‘jan Jumabaevning “Pedagogika” kitobi 15 qismdan iborat. Birinchi qismda tarbiyaga “***keng ma’noda tarbiya kimgadir yordam berish degani. Endi esa, insoniyat haqida gapiradigan bo‘lsak, u inson bolasini kamolot-ga yetib, o‘ziga-o‘zi ega bo‘lguncha, unga to‘g‘ri rizq berib, o‘stirish ma’nosida yurit-ladi***” deb, ta’rif beradi. Tarbiyaning maqsadini esa quyidagicha ta’riflaydi: “***Tarbiyadan maqsad insonni, millatni, hattoki butun insoniyat olamini baxtli qilishdir***”.

Ma’rifatparvar olim ikkinchi qismda pedagogika fanini beshga ajra-tib ko‘rsatadi. **Umumiy pedagogika** insonning jismoniy va ruhiy kuchlarini tarbiyalash yo‘llarini ko‘rsatuvchi sifatida tavsiflanadi. **Didaktika** o‘qi-tishning asosiy yo‘llarini, **metodika** esa muayyan fanni o‘qitish yo‘llarini ko‘rsatuvchi sifatida belgilanadi. Pedagogika fanining to‘rtinchi bo‘limi **maktab boshqaruvi**, beshinchi bo‘limi esa **pedagogika tarixi** deb ataladi.

Olim umumiy pedagogika tana tarbiyasi va ruh tarbiyasi haqidadir, degan xulosaga keladi. Mag‘jan Jumabaevning “Pedagogika” darsligi ana shu ikki tarbiya turiga bag‘ishlangan. Ma’lumki, pedagogika ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan pedagogika darsliklari pedagogikaning umumiy masalalari, didaktika, ta’lim nazariyasi, maktabni boshqarish (ta’lim muassasasi menej-menti) kabi yirik bo‘limlardan iborat. Mag‘jan o‘z vaqtida pedagogika muammolarini to‘g‘ri belgilab bergan. Ammo bundan yuz yil avval qozoq tilida pedagogik va psixologik adabiyotlar yo‘qligini hisobga olib, muallif maktabgacha pedagogika, umumiy pedagogika, psixologiya fanlari tomonidan ko‘rib chiqilgan masalalarni kitobida muvofiqlashtirib bergan.

Mag‘jan Jumabaevning “Pedagogika” darsligi o‘z davri uchun ham, bu-gungi kun uchun ham muhim ahamiyatga ega, chunki bu kitobni o‘qish orqali ota-onalar, pedagoglar, o‘qituvchilar, o‘quvchilar bolani tug‘ilganidan qanday tarbiyalash kerakligini o‘rganadilar. Olimning aytishicha, yangi tug‘ilgan bolani tarbiyalash uchun ***o‘lchov, issiqlik, nafas olish, yurak urishi, bolalar xonasi, bolaning ovqati, kiyimi, uxlashi, harakatlanishi, yurishi, tishlashi*** kabi narsalarni yaxshi bilish kerak. Kitobda bularning barchasi ilmiy jihatdan bayon etilgan. Mag‘jon: “***Tanani tarbiyalashga yengil-yelpi qaramaslik kerak. ... Tana ruhning asbobidir. Asbob kuchli bo‘lsa, egasi ham kuchli bo‘ladi***”. U “sog‘lom jon faqat sog‘lom tanada bo‘ladi” degan eski naqlga amal qilish zarurligini ta’kidlaydi.

Pedagog ruh tarbiyasini tananing tarbiyasi bilan birga olib borish ke-rakligini aytadi. U ruhni to'g'ri tarbiyalash uchun psixologiya fanini bilish kerak, degan xulosaga keladi. Kitobda ruhning namoyon bo'lishi bilan tana-ning namoyon bo'lishi o'rtasidagi farq va ular orasidagi aloqalar ochib beril-gan. Ruhning namoyon bo'lishini qanday o'rganish kerakligini aniq tushun-tirib beradi. U bu muammolarni ruh tarbiyasi to'g'ri bo'lishi uchun asab tizimi va uning vazifalarini bilish, asab tizimini saqlash va rivojlantirish zarur, deb tushuntiradi.

Kitobning keyingi qismlarida ruhning namoyon bo'lishi **taassurot, diqqat, tavsiflash, aql, tasavvur, tafakkur, tilga** bo'linadi deb ko'rsati-ladi. Har bir tushuncha ilmiy nuqtai nazardan batafsil tushuntiriladi. Bu tushunchalarning barchasi psixologiya fani tomonidan ko'rib chiqiladi. Mag'-jon esa bularni pedagogika bilan bog'laydi. Turkiston o'lkasiga pedagogika va psixologiya fani endigina kirib kelayotgan o'sha davrda shu yo'sinda yozish juda zarur edi.

Kitobning katta qismi ichki tuyg'ular va kuch shakllariga bag'ishlangan. Bu erda biz pedagogika va psixologiyaning uyg'unligini ko'ramiz. Pedagog ichki tuyg'ularni xarakterga ko'ra **ijobiy va salbiy**, kuchga ko'ra **ruhiy xolat va affekt** deb ajratadi, ularni qozoq turmush tarzi bilan boyitadi. Tarbiya-chi bolaning ichki tuyg'ularini tarbiyalash yo'llarini va uni qanday boshlashni bilish zarurligini tushuntiradi. **G'azab, qo'rquv, achinish, do'stlik, zeri-kish** kabi ichki his-tuyg'ularning turlarini tavsiflaydi. U inson uchun eng qimmatli ichki tuyg'ular **go'zallik (estetik)** va **ahloqiy tuyg'ular** ekanli-gini aytadi va ularni bolada shakllantirish yo'llarini ko'rsatadi. Olim "**Bolaning ust-boshi, tanasi, yuzi, qo'llari, hamma narsasi toza bo'lishi kerak**" deb, go'zallikning boshlanishi poklik ekanligini ko'rsatadi. Bolaning atrofida aytiladigan so'zlar ham chiroyli bo'lishi kerak deydi.

Olim bolada ahloq tuyg'usini shakllantirish uchun atrofdagi odamlar-ning xulq-atvoriga alohida e'tibor berishni talab etadi. Shu bilan birga, uyda ham, maktabda ham to'g'ri tartib bo'lishi kerak, aks holda bolada tarbiya-chiga nisbatan ishonch qolmaydi deydi. Bolani to'g'ri xulq-atvoriga tarbiyalash oson emas, bolani yoshligidanoq yaxshi va yomon ishlarni solishtirishga o'rgatish kerak. Shunda bola yaxshi va yomonni osongina ajrata oladi degan xulosani beradi.

Irodani **tortilish, intilish va xohish deb** uch turga bo'ladi. Irodaning yaratilish va rivojlanish yo'llarini ko'rsatadi. U irodani xarakter bilan bog'lash orqali tushuntiradi. Uning fikricha, har bir insonda tug'ma xarakter mavjud bo'lib, u temperament deb ataladi. **Temperamentning** sangvinik, xolerik, flegmatik, melanxolik tiplari sof holatda mavjud emas, ular bir-biri bilan aralashib ketgan. Kitobda temperament nafaqat insonning gene-tik xususiyatlariga, balki uning butun hayoti davomida to'plagan tajriba-lariga, shuningdek, yoshiga qarab o'zgarishi ko'rsatilgan.

Kitob bolaning umumiy tabiatiga sharh berish bilan yakunlanadi.

Magʻjan Jumabaev “Pedagogika” darsligini faqat oʻzining pedagogik tajribasiga asoslanib yozmagan. U pedagogika va psixologiya fanlarini chuqur oʻrganib, qozoq xalqining mentalitetini hisobga olib, katta ilmiy tayyor-garlik bilan ijod qilgan.

Qozogʻistonning yetakchi olimlaridan biri, professor Sherizadan Yeleu-kenovning fikricha, Magʻjan Jumabaevning “Pedagogika” darsligini “tari-xiy yodgorlik deb hisoblamalik kerak”. Bugungi kunda oliy oʻquv yurtlari oʻquv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishda Magʻjan Jumabaev darsligi asos boʻlishi kerak. Chunki bu kitobda pedagogik va psixologik atamalarga aniq taʼriflar berilgan.

Yuqoridagi fikrlarimizni umumlashtirib aytadigan boʻlsak, Magʻjan Bekenuli Jumabaevning bundan 100 yil muqaddam 1923 yilda Toshkentda nashr etilgan “Pedagogika” darsligi hali ham oʻzining ilmiy ahamiyatini yoʻqotmagan. Turkiy tilli xalqlarning birinchi kitobi “Pedagogika” milliy pedagogik gʻoyalar rivojiga hissa qoʻshishi shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Диний-маърифий соҳа фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 16.04.2018 йилдаги ПФ-5416 Фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 18.04.2018 й., 06/18/5416/1079-сон, 13.12.2018 й., 06/18/5597/2300-сон.
2. Urinova, M. V. (2020). Issues of use of information and communication technologies in the conditions of digital economy. *EPRA International Journal of Research and Development*, 5(6), 130-132.
3. Baxronovna, R. M. (2023). Developing teacher's skills in using scientific methodological articles in science teaching. *International Journal of Advance Scientific Research*, 3(09), 122-127.
4. Neʼmatovna, R. Z. (2024). Problems of emotional intelligence stability in the formation of individual values. *Academia Repository*, 5(3), 218-220.
5. Hayitmuradova, N. A. (2022). Positive influence of physical activities on the organism of young athletes. *Science and Innovation*, 1(8), 641-644.
6. Xamidov, M. (2023). On some similar and different aspects of proverbs and subjects. *American Journal of Pedagogical and Educational Research*, 15, 66-68.
7. Mirakhmedova, S. N. (2024). Socio-philosophical analysis of transformation of spiritual-ideological reforms in new Uzbekistan. *Proximus Journal of Sports Science and Physical Education*, 1(1), 28-32.
8. Holiqova, D. S. (2023). Тенденции развития образования и педагогики. Conference, 1(5), 147-150.
9. Xalilova, D., & Normamatova, Y. (2022). Preparing preschool children for literacy. *Science and Innovation*, 1(8), 670-673.

10. UMIDA, R. (2021). Personal speech research in the communication process. *Xorazm ma'mun akademiyasi axborotnomasi-11/2020*, 205-209.
11. Umurqulov, Z. B. (2020). Comparison in literary text and its linguopoetic value. Karshi State University.
12. Kaldibekova, A. S., & Xodjaev, B. X. (2006). O'quvchilarning bilish faolligini oshirish yo'llari. *Uslubiy qo'llanma. T.: TDPU*.
13. Kaldibekova, A. S., & Norboyev, F. C. (2021). Pedagogik innovatsion faoliyatda psixologik to'siqlar muammosi. *Academic research in educational sciences*, 2(CSPI conference 1), 611-615.
14. Kaldibekova, A. S., & Norboyev, F. C. (2015). Internet vositasida talabalar mustaqil ishlarini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari. In *Сборники конференций НИЦ Социосфера* (No. 51, pp. 16-18). Vedecko vydavatelske centrum Sociosfera-CZ sro.
15. Калдыбекова, А., & Ходжаев, Б. (2009). Педагогик аксиология. *Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти*, 80.
16. Калдыбекова, А. С. (2022). Актуальность педагогики сотрудничества на современном этапе развития образования. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(5), 213-216.
17. Мадьярова, С. А., Морхова, И. В., & Нишанова, М. Х. (2018). Формирование профессиональной компетентности у будущего учителя. *Наука и образование сегодня*, (3 (26)), 48-49.
18. Калдыбекова, А. С., & Морхова, И. В. (2018). Профессиональная подготовка в педагогическом вузе с ориентацией на компетентностный подход. *Наука и образование сегодня*, (2 (25)), 55-56.
19. Морхова, И. В., & Калдыбекова, А. С. (2022). Smart-образование в научной педагогической лаборатории вуза. *Экономика и социум*, (7 (98)), 277-281.
20. Калдыбекова, А. С. (2016). Организация педагогического взаимодействия образовательных учреждений как социально-педагогическая проблема современности. *Педагогические науки*, (2), 58-59.
21. Kaldibekov, A. V. (2023). Бўлажак педагогларнинг технологик компетентлик даражасини ривожлантиришнинг педагогик шартшароитлари. *Mugallim*, 1(2), 15-20.